

TALABALARNING YOZISH KO‘NIKMASINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY MEZONLAR VA RUBRIKA ASOSIDAGI YONDASHUVNING SAMARADORLIGI

Ramazonova Feruzaxon Akbarovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsent v.b., Toshkent

orcid:0009-0003-2641-5319 e-mail: feruzaramazonova@yandex.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning yozish ko‘nikmasini shakllantirish va baholash masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yozma nutqni baholashning an‘anaviy va zamonaviy yondashuvlari o‘rganilib, ularning o‘ziga xos jihatlari yoritib berilgan. Shuningdek, yozma ishlarni baholashda qo‘llaniladigan asosiy mezonlar – mazmun, tashkillashtirish, imlo va tinish belgilari, so‘z tanlash, tildan foydalanish hamda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi komponentlarning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada yozish ko‘nikmasini baholash uchun ishlab chiqilgan rubrika elementlari tahlil qilinib, ular talabalarning yozma nutqini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar yozish ko‘nikmasi, yozma nutqni baholash, baholash mezonlari, yozish rubrikasi, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, grammatika, akademik yozuv.

Abstract: This article analyzes the issues of developing and assessing students' writing skills. During the study, traditional and modern approaches to assessing written speech were studied and their specific aspects were highlighted. Also, the main criteria used in assessing written work - content, organization, spelling and punctuation, word choice, language use, as well as the importance of components such as critical thinking and creativity - are substantiated. The article analyzes the elements of the rubric developed for assessing writing skills and shows that they are important in developing students' written speech.

Keywords: writing skills, assessment of written speech, assessment criteria, writing rubric, critical thinking, creativity, grammar, academic writing.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы развития и оценки навыков письменной речи учащихся. В ходе исследования были изучены традиционные и современные подходы к оценке письменной речи и выделены их специфические аспекты. Также обоснованы основные критерии, используемые при оценке письменных работ: содержание, организация, орфография и пунктуация, выбор слов, использование языка, а также важность таких компонентов, как критическое мышление и креативность. В

статье анализируются элементы разработанной рубрики для оценки навыков письменной речи и показывается их важность в развитии навыков письменной речи учащихся.

Ключевые слова: навыки письменной речи, оценка письменной речи, критерии оценки, рубрика для письменной речи, критическое мышление, креативность, грамматика, академическое письмо.

Bugungi globallashuv jarayonida chet tilini o‘qitish tizimida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri yozish ko‘nikmasi bo‘lib, u talabalarga o‘z fikrlarini mantiqan izchil, aniq va grammatik jihatdan to‘g‘ri ifodalash imkonini beradi. Yozish jarayoni nafaqat til birliklarini mustahkamlash, balki talabalarning tanqidiy fikrlashi, ijodkorligi va mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.[1]

Zamonaviy ta‘lim tizimida yozma nutqni baholashga bo‘lgan yondashuvlar ham sezilarli darajada o‘zgarib bormoqda. An‘anaviy baholash usullari asosan grammatik to‘g‘rilik va imlo qoidalariga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, zamonaviy baholash tizimi yozma nutqning mazmuniy boyligi, matn tuzilmasining mantiqiyliqi, so‘z boyligi, til vositalaridan samarali foydalanish hamda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi ko‘plab komponentlarni ham hisobga oladi.[2;3]

Shu nuqtai nazardan, yozish ko‘nikmasini baholash jarayonida aniq va tizimli mezonlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada talabalarning yozish ko‘nikmasini baholashda qo‘llaniladigan asosiy mezonlar tahlil qilinadi hamda yozma ishlarni baholash uchun ishlab chiqilgan rubrika elementlari – mazmun, tashkillashtirish, imlo va tinish belgilari, so‘z tanlash, tildan foydalanish hamda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi komponentlarning ahamiyati yoritib beriladi.

Talabalar yozish ko‘nikmasini shakllantirish orqali o‘zlashtirilgan grammatik tuzilmalarni, iboralarni va lug‘at boyligini mustahkamlaydilar. Shu bilan bir qatorda, yozishni o‘rgatish darslari ijodkorlik, mustaqillik, izlanuvchanlik va tanqidiy mulohaza yuritish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga ko‘mak beradi.[1] Yozma ishlarni baholash oddiygina grammatikani tekshirish emas balki, samarali muloqotni aks ettiruvchi boshqa mezonlarni ham baholashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Ilmiy manbalarni o‘rganish jarayonida yozma ishlarni baholashga nisbatan ikki xil yondashuv — an‘anaviy va zamonaviy baholash yondashuvlari mavjudligi aniqlangan. An‘anaviy baholash asosan grammatika, imlo va oddiy gap tuzilishi kabi jihatlarga e‘tibor qaratadi, zamonaviy baholash esa yozma nutqning mazmuni, tashkil

etilishi va kommunikativ samaradorligini ham qamrab oladi [4]. Endilikda yozma nutqqa nafaqat muloqot vositasi, balki fikrlash vositasi sifatida ham qaralmoqda. Shu bois, baholash usullari yozuvchining texnik mahoratini ham, intellectual mehnatini ham aks ettira olishi lozim. Bu o‘zgarish natijasida mazmunni tanlash va rivojlantirish, izchil va mantiqiy tuzilma yaratish, til qoidalarini to‘g‘ri qo‘llash, tahlil va dalillash orqali tanqidiy fikrlashni namoyon etish hamda muammolarni hal etishda va g‘oyalarni ifodalashda ijodkorlikni qo‘llashni o‘z ichiga olgan yaxlit baholash tizimlari shakllanadi. Ushbu mezonlarni va ularning o‘zaro ta‘sirini tushunish, talabalarni yozuvchi va fikrlovchi bsifatida rivojlanishiga yordam beradigan mazmunli fikr-mulohazalar berishni hohlovchi pedagoglar uchun nihoyatda muhimdir.

Yozma matnlar yaratishda bir necha asosiy komponentlar mavjud bo‘lib, ular baholash mezonlari sifatida qo‘llaniladi. Baholash o‘quvchining yozma ishini tahlil qilish, uning bilim darajasi va malakasini o‘lchash imkonini beradi. Baholash jarayoni adolatli bo‘lishi uchun aniqlangan mezonlar barcha ishlar uchun izchil qo‘llanilishi kerak. Tadqiqot olib borish mobaynida, yozish ko‘nikmasini baholash yuzasidan bir nechta asosiy elementlarni belgilab oldik va yozishni baholash rubrikasini shakllantirishda ushbu elementlarni baholashga e‘tibor qaratdik. (1-ilova).

1. Mazmun (Content)
2. Tashkillashtirish (Organization)
3. Imlo va tinish belgilari (Spelling and punctuation)
4. So‘z tanlash (Vocabulary)
5. Tildan foydalanish (Language use)
6. Tanqidiy fikrlash va ijodkorlik (Critical thinking and creativity)

Mazkur mezonlar asosida ishlab chiqilgan baholash rubrikasi talabalar yozma ishlarini kompleks tarzda baholash imkonini beradi [5].

Mazmun – goyaning mavzuga mosligi, aniq ifodalanganligi, va izchil rivojlanishi hamda uning shaxsiy tajriba, misollar, faktlar bilan qay darajada asoslanganligini

Tashkillashtirish – matnning kirish, asosiy qism va xulosadan iborat mantiqiy izchilligini

Imlo va tinish belgilari (Yozish texnikasi) – imlo, tinish belgilari, bosh xarflar va boshqa yozma til qoidalariga amal qilinishini

So‘z tanlash – to‘g‘ri so‘z tanlovi va boy so‘z zaxirasi, matnning madaniy va badiiy qiymatini oshirish hamda ilmiy yoki sohaga oid terminlarni ishlatilishini

Tildan foydalanish (Grammatika) – gap tuzilishida so‘zlarning to‘g‘ri joylashuvi va grammatik qoidalarga rioya qilinishini

Tanqidiy fikrlash va ijodkorlik (Critical thinking and creativity) – fikrlarni ifodalashda ravonlik, tafsilotlarni aniqlashtirishda o‘ziga hoslik, va ijodkorlik ko‘nikmalarini belgilab beradi.

Yozish jarayonida ijodkorlik darajasini ta’sirini o‘rganishga bagishlangan tadqiqotlar shuni anglatadiki, ijodkorligi yuqori bo‘lgan talabalar past ijodkorlikdarajasiga ega talabalarga qaraganda yozma ishda yaxshiroq natijalarga erishadilar.

Shuningdek, yozish jarayonida ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalar yozma ishining sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlik darajasi yuqori bo‘lgan talabalar yozma nutqda yanada yaxshi natijalarga erishadilar [6].

Dars jarayonida talabalar bosqichma-bosqich yozish jarayonini o‘rganib, yakunda mustaqil rasmiy va mantiqan izchil shikoyat xatini yozish darajasiga yetadi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning yozish ko‘nikmasini rivojlantirish va baholash jarayoni ko‘p qirrali va murakkab pedagogik faoliyat hisoblanadi. Yozma nutqni baholash faqat grammatik xatolarni aniqlash bilan cheklanib qolmasdan, balki matnning mazmuni, mantiqiy tuzilishi, til boyligi hamda muallifning fikrlash darajasini ham qamrab olishi lozim.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, yozma ishlarni baholashda mazmun, tashkillashtirish, imlo va tinish belgilari, so‘z tanlash, tildan foydalanish hamda tanqidiy fikrlash va ijodkorlik kabi mezonlardan foydalanish baholash jarayonining yanada aniq va adolatli bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu mezonlar asosida ishlab chiqilgan baholash rubrikasi talabalarning yozma nutqini kompleks tarzda tahlil qilish, ularning kuchli va rivojlantirilishi lozim bo‘lgan jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shuningdek, yozish jarayonida ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish talabalarning yozma ish sifatini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada talabalar bosqichma-bosqich yozish ko‘nikmalarini rivojlantirib, mustaqil ravishda rasmiy va mantiqan izchil matnlar yaratish darajasiga yetadilar. Shu bois, yozish ko‘nikmasini baholashda zamonaviy, kompleks va mezonlarga asoslangan yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007.
2. Harmer J. How to Teach Writing. – Harlow: Pearson Longman, 2004.
3. Hedge T. Teaching and Learning in the Language Classroom. – Oxford: Oxford University Press, 2000.

4. Hyland K. Second Language Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
5. Weigle S. C. Assessing Writing. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.
6. Richards J. C., Renandya W. A. Methodology in Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002.

INGLIZ TILI DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Mamadjanova Zuxra Baxromdjanovna

Namangan davlat pedagogika instituti Ingliz tili fani o‘qituvchisi

[*zuxramamadjanova@7gmail.com*](mailto:zuxramamadjanova@7gmail.com)

Qosimova Nilufar Nozimjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

[*nilufarqosimova@gmail.com*](mailto:nilufarqosimova@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Bugungi kunda zamonaviy ta’lim jarayoni o‘qitishda innovatsion va raqamli vositalardan foydalanishni talab etadi. Onlayn platformalar, multimedia resurslari, ta’limiy ilovalar va interaktiv vositalar kabi raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishga, ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga hamda darslarni yanada samarali va qiziqarli tashkil etishga yordam beradi. Maqolada shuningdek, ushbu texnologiyalardan samarali foydalanishda o‘qituvchining roli va ularning ta’lim jarayoniga keltiradigan foydasi ham ko‘rib chiqiladi. Natijada, ingliz tili ta’limida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Raqamli texnologiyalar, ingliz tili ta’limi, onlayn platformalar, multimedia resurslar, interaktiv ta’lim, ta’limiy ilovalar, innovatsion metodlar, masofaviy ta’lim, elektron ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘quv jarayoni, o‘quvchilarning motivatsiyasi, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet resurslari, raqamli ta’lim muhiti.

Annotation: This article discusses the importance of using digital technologies in English language classes. Today, modern educational processes require the integration of innovative and digital tools into teaching. Digital technologies such as online platforms, multimedia resources, educational applications, and interactive tools help improve students’ language skills, increase their motivation, and make lessons more engaging and effective. The article also highlights the role of